

O‘TKIR YUQUMLI KASALLIKLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

Dadabaeva Naziraxon Abdurazaqovna

Andijon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Xayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazi o‘qituvchi-uslubchisi

Raxmonov Shoxruxbek Solijonovich

Andijon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Xayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘tkir yuqumli kasalliklar kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish haqida ma’lumotlar berilgan. Hozirgi davrda bir qator yuqumli kasalliklar mavjud bo‘lib ularni o‘rganishimiz va bilishimiz juda zarurdir. Har qanday yuqumli kasallik avj olsa epidemiyani keltirib chiqaradi. Epidemiya - yuqumli kasalliklarning biror o‘lka, viloyatda yoki mamlakatda keng tarqalib ketishi. Bunda bemorlar soni odatdagidan 510 marta ko‘p bo‘ladi.

Kalit sozlar: Yuqumli kasalliklar, mikroob, virus, epidemiya, epifitotiya, epizootiya, ko‘kyo‘tal,

Yuqumli kasalliklar – patogen mikroorganizmlar (bakteriyalar, viruslar, eng soddajonivorlar va h. k.) ning kishi, hayvon va o‘simlik organizmiga kirib ko‘payib, zararli ta’sir ko‘rsatishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklar. Infeksiyon kasalliklardan ba’zilari (masalan qizamiq) bemorga yaqin yurilganda yuqadi, ularga yuqumli kasalliklar termini juda mos keladi. Infeksiyon kasalliklardan ba’zilari (masalan bezgak) bemorga yaqin yurilganda kontakt yo‘li bilan) yuqmaydi, demak, ularga yuqumli kasalliklar termini unchalik to‘g‘ri kelmaydi. Yuqumli kasalliklar qadim zamonlarda ham uchragan. Chinchechak, o‘lat, vabo va boshqa xatarli, yuqumli kasalliklar vaqti-vaqti bilan keng tarqalib, millionlab kishilarning yostig‘ini

qurutgan, jamiyatga ko‘p halokat etkazgan. Yuqumli kasalliklarning mohiyati ularning kelib chiqish sabablari uzoq vaqt noma’lum bo‘lib kelgan. O‘rta asrning mashhur olimi va shifokori Abu Ali Ibn Sino «Al qonun» asarida o‘lat, chinchechak, qizamiq va boshqa yuqumli kasalliklarni ko‘zga ko‘rinmaydigan jonivorlar qo‘zg‘atsaa kerak deb gumon qilganlar. [4]Yuqumli kasalliklar odamlar hayotida muhim rol o‘ynaydi. Xozirgi kunga qadar er yuzida ma’lum bo‘lgan va o‘rganib chiqilgan yuqumli kasalliklarning soni 1060 dan ortiq. shularning ba’zilari hali ham vaqti-vaqti bilan epidemiya, hattoki pandemiya shaklida keng tarqalib turadi. Shuning uchun ham ularning kishilar sog‘ligiga va umuman kishilik jamiyatiga keltiradigan zarari juda kattadir. Yuqumli kasalliklar haqidagi ta’limot mikrobiologiya, epidemiologiya, parazitologiya, immunologiya, eksperimental ximioterapiya va patalogik anatomiya bilan chambarchas bog‘liq. Yuqumli kasalliklarni garchi patogen bakteriyalar, viruslar va bir hujayrali sodda jonivorlar qo‘zg‘otsada, ularning paydo bo‘lishini faqat mikrobning organizmga qarshi kurashi natijasi deb hisoblab bo‘lmaydi. Infeksiya avj olishi murakkab ijtimoiy biologik jarayon bo‘lib, mikrob bilan makroorganizmning o‘zaro ta’siri natijasiga bog‘liq. Patogen bakteriya kirganda odam organizmida patologik o‘zgarishlar, moslashish va himoyalani jarayoni yuz beradi, ya’ni infeksiyon kasallik rivojlanadi. Patogen mikrob organizmga kirgandan so‘ng kasallik rivojlanishi shart emas. Patogen mikrob bilan odam organizmi o‘rtasidagi munosabat turlicha bo‘lishi mumkin, bu bir tomondan mikrobning virulentligi va ikkinchi tomondan odam organizmining ana shu kasallikka moyilligi va reaktivligiga bog‘liq.

Yuqumli kasalliklar boshqa kasalliklardan quyidagi 4 ta xususiyati bilan farq qiladi:

1. Yuqumli kasallikni tirik patogen mikrob qo‘zg‘atadi. [3]
2. Bemor o‘z navbatida kasallik manbai bo‘ladi va uni boshqalarga yuqtirishi mumkin.

3. Bemor qaysi yuqumli kasallik bilan og'rib o'tsa, uning organizmida o'sha kasallikka qarshi immunitet hosil bo'ladi va shu kasallikning qaytadan yuqishiga qarshilik ko'rsatadi.

4. Yuqumli kasalliklar muayyan davrlar bilan, ya'ni siklik tarzda rivojlanadi va sonadi.

Infeksiya so'zi tor ma'noda olinganda mikroorganizmni makroorganizmga kirishini anglatadi. Infekcion jarayon esa patogen omil kirgan organizmda yuz beradigan fiziologik va patologik o'zgarishlar yig'indisidir. Infekcion kasallik infeksiyon jarayonning eng zo'riqqan darajasiga to'g'ri keladi va organizmda yuz beradigan har xil o'zgarishlar, hamda belgilar bilan namoyon bo'ladi. Demak, yuqumli kasallikning rivojlanishi uchun avvalo organizmga patogen mikroorganizm kirishi kerak. Patogen mikroorganizm kirganda mikroorganizm bilan organizmning o'zaro ta'siri har xil natija bilan yakunlanadi.

1. Kirgan mikroorganizmdan tashqariga chiqariladi yoki himoya mexanizmi ta'sirida yo'q qilinadi.

2. Patogen mikroorganizmda qulay sharoit topib o'rnatilgan qoladi. Bunday hollarda ikki tirik organizm o'rtasida murakkab munosabatlar boshlanadi. [2] Makroorganizm o'zining himoya mexanizmlari yordamida begona unsur, ya'ni mikroorganizmning ko'payishiga va tarqalishiga to'siq bo'ladigan chora-tadbirlarni ko'radi (masalan yallig'lanish jarayoni) Fagositar elementlar, antitanalar safarbar qilinadi. Organizmning bu himoya va moslashish reaksiyalari to patogen mikroorganizmdan butunlay yo'qolguncha davom etaveradi. Patogen mikroorganizm o'zini har qanday qarshi kuchlardan saqlashga urinadi, o'ziga sharoit bo'lsa tez ko'payish boshlaydi, fagositlarga qarshi moslanadi (kapsula hosil qiladi, agressin, atifagin, virulin kabi moddalar ishlab chiqariladi) mikroorganizmning organizmga kirishi, ko'payishi va makroorganizmning himoya mexanizmlarini engib, o'zining zararli ta'sirini ko'rsata olishi, uning virulentligidir. Patogen mikroorganizmda tez surat bilan ko'payadi va uning himoya kuchlarini engib, o'zining patogen xususiyatini namoyon qiladi. Kasallik tayinli bir shaklda avj olib klinik belgilari yaqqol

ko‘rinadi. Yuqumli kasalliklar avj olishida quyidagi omillar, patogen mikrobnining miqdori; va patogen mikrobnining virulentligi odam organizmining reaktivlik xususiyati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Epidemiologiya yuqumli kasalliklarning paydo bo‘lishi, avj olib borishi va tarqalishi qonuniyatlarini o‘rganadigan va ularga qarshi kurash choralarini asoslab ishlab chiqadigan fandır. Epidemiologiya atamasi lotincha epi-kop demas aholi so‘zlardan olingan bo‘lib, aholi ichida kasallik tarqalishi degan ma‘noni anglatadi. Infeksion kasallikka yo‘liqqan odamlarning, ko‘p-ozligiga qarab epidemiologik jarayonning turli xillari ajratiladi.

1. Sporadik kasalliklarga uchragan odamlar onda-sonda uchraydi.
2. Epidemiya - yuqumli kasallikning bironta o‘lka, viloyatda yoki mamlakatda keng tarqalib ketishi.
3. Pandemiya - bir vaqtda xalqaro miqyosda, ya‘ni bir necha mamlakat va qit‘alarda bironta infeksiion kasallikning keng tarqalib ketishi (masalan: xolera, karonovirus, gripp)
4. Endemiya-muayyan xududda bironta yuqumli kasallikning doimiy uchrab turishi.
5. Enzootiya-bironta joyda yashovchi hayvonlar (masalan: kemiruvchilar) orasida biror yuqumli kasallikning doimiy uchrab turishi (masalan: o‘lat, leishmanioz)
6. Epizootiya - hayvonlar orasida bironta yuqumli kasallikni keng tarqalib ketishi.
7. Ekzotik kasalliklar-xorijdan keltirilgan yuqumli kasalliklar.

Yuqumli kasalliklar infeksiya manbaiga qarab avvalo ikki guruhga bo‘linadi:

1. Antropozoonozlar-bu kasalliklar faqat odamlarda uchraydi va ular bilan hayvonlar kasallanmaydi (qorin tifi, ichburug‘, gepatitlar, OITS)
2. Zoonozlar - bu kasalliklar hayvonlarda va odamlarda uchraydi. Odamlarga infeksiya hayvonlardan yuqadi (brusellyoz, o‘lat, qutirish, kuydirgi).[1]

Xulosa: Infeksiion kasalliklarning yanada tarqalishiga yo‘l qo‘yimaslik uchun shunday kasalliklar bilan og‘rigan bemorlar yoki shunday kasallik bor deb gumon qilingan kishilar kasalxonada yoki uyida ajratib qo‘yiladi. Toun (chuma), vabo (xolera), toshmali terlama (toshmali tif), ich terlama (qorin tifi), paratif, dizenteriya, virusli gepatit, difteriya va b. kasalliklar topilgan yoki gumon qilingan kishilarni

maxsus sanitariya transportida kasalxonaga olib borib yotqizish shart. Gripp, qizamiq, ko'kyo'tal va ba'zi infeksiyon kasalliklar bilan og'rikan bemorlarni alohida xonaga yotqizish, tegishli parvarish qilish va dezinfeksiya o'tkazib turish sharti bilan uyida ajratib qo'yish mumkin. Sanatoriylar, dam olish uylari, bolalarni sog'lomlashtirish muassasalari, bolalar bog'chalari va yaslilarda, shuningdek, kasalxonalarning terapiya, xirurgiya, pediatriya va b. (infeksiyon bo'limidan tashqari) bo'limlarida izolyator jihozlanadi. Ayniqsa, xavfli infeksiyalar (toun, vabo) bilan og'rikan bemorlarga yaqin yurgan kishilarni o'sha kasalliklarning inkubatsion davriga teng keluvchi muddat bilan ajratib qo'yish shart. Boshqa infeksiyon kasalliklarda bemorlar turli muddat bilan ajratib qo'yiladi. Bemor organizmida shu kasallikni vujudga keltiruvchi maxsus mikroblarning borligi va kasallikning odamdan odamga yuqishi mumkinligi infeksiyon kasalliklarning asosiy belgilaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuqumli kasalliklar . Kuchkarova L.S, Qurbonov Toshkent-2008[1]
2. Anotomiya , fiziologiya, patologiya A.Axmedov Toshkent-2015[2]
3. D.Mamatqulov Odam anatomiyasi Toshkent-2007[3]
4. Patologiya Anotomiya M.Abdullaxo'jaeva Toshkent-2011[4]
5. www.ziyonet.uz[5]